


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 28 603 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 19 791 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

2025- yil 1- aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 10 171 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ularning ulushi 54,2 % ni tashkil etdi.

**2025- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (48,8 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.


2025- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 704,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda, Yashash va ovqatlanish xizmatlariga (35,3 %), savdo xizmatlariga (17,5 %), transport xizmatlariga (14,7 %), moliyaviy xizmatlariga (11,4 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1 915,3 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2025- yil yanvar-fevral) oyiga nisbatan xizmatlar hajmi 10 704,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga Yashash va ovqatlanish xizmatlari (3 525,5 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (1 099,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (540,1 mlrd. so'mga), hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (261,6 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning mos davrida Yashash va ovqatlanish xizmatlar – 3 114,1 mlrd. so'm, savdo xizmatlar – 1 606,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 1 268,2 mlrd. so'm va moliyaviy xizmatlar – 998,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Xizmatlar – jami	10 704,0	111,2
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	375,8	117,2
moliyaviy xizmatlar	1 221,0	118,8
transport xizmatlari	1 578,7	111,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 479,1	110,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 773,3	110,3
savdo xizmatlari	1 875,5	111,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	173,0	109,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	347,3	111,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	149,4	111,0
ijara xizmatlari	166,5	102,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	297,5	111,4
shaxsiy xizmatlar	295,5	105,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,5	73,3
boshqa xizmatlar	381,0	108,2

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar 118,8 %, Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 117,2% , Ta‘lim sohasidagi xizmatlar 111,9 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 73,3 %, Ijara xizmatlari 102,3 % hamda Shaxsiy xizmatlar 105,6 % da kuzatildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlari tashkil etdi. 2025- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 14,7 %, moliyaviy xizmatlari 11,4 % egallaydi.

2025- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1875,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari 269,0 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste‘mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,4 %



atomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 6,0 %



chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 83,6%


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2025- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 83,6 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,4 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,0 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2025- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2025- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 375,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sishi 79,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 93,2 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,6 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,3 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 221,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 118,8 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,8 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda.

2025- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 347,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 111,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 3 773,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 35,3 % ga yetdi.


2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	10 704,0	111,2
Qarshi sh.	1 865,0	112,7
Shahrisabz sh.	322,6	104,1
G'uzor	236,9	112,0
Dehqonobod	203,1	111,6
Qamashi	385,5	110,5
Qarshi	378,3	112,0
Koson	374,1	111,8
Kitob	451,1	110,9
Mirishkor	286,4	110,8
Muborak	334,5	112,1
Nishon	286,6	111,7
Kasbi	319,6	111,1
Ko'kdala	113,2	111,8
Chiroqchi	177,7	111,9
Shahrisabz	327,7	111,5
Yakkabog'	293,1	111,0
Taqsimlanmagan hajm	4 348,6	111,3

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1 865,0 mlrd. so'm), Kitob tuman (451,1 mlrd so'm), Qamashi tuman (385,5 mlrd. so'm), Qarshi tuman (378,3 mlrd. so'm) va Koson tuman (374,1 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ko'kdala (113,2 mlrd. so'm), Chiroqchi (177,7 mlrd. so'm), Dehqonobod (203,1 mlrd. so'm), va G'uzor (236,9 mlrd. so'm) da kuzatilmoqda.


2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar – 112,7 %, Muborak tumani – 112,1 %, G'uzor tumani – Qarshi tumani 112,0 % va Chiroqchi tumanida 111,9 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


**2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (17,4 %), Kitob tumani (4,2 %), Qamashi tumani (3,6 %) va Qarshi (3,5 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala (1,1 %), Chiroqchi tumani (1,7 %) va Dehqonobod (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2025- yil yanvar-mart oylari uchun)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 471,8 ming so'mga oshib 2 934,4 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 6187,9 ming so'm, Muborak tumanida 3 502,8 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (110,8 %) Muborak tumanida (109,9 %), va Shahrisabz tumanida (109,6 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Shahrisabz shahar (102,1 %), Qamashi (108,0 %), Mirishkor (108,5 %) va Ko'kdala (108,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (273,3 mlrd. so'm), Qarshi (139,4 mlrd. so'm) va Kitob (129,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (39,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 875,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.


2025- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Dehqonobod (117,4 %), Shahrizabz (117,0 %) va Qarshi tumanlarida (114,7 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Kitob tumanida (104,8 %) va G'uzor tumanida (105,6 %) qayd etildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Qarshi shahri (16,9 %) va Qarshi (8,6 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala tumanida (2,4 %) Chiroqchi (3,5 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 1 578,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Kitob tumanida (169,7 mlrd. so'm) va Kasbi tumanida (152,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala tumanida (19,0 mlrd. so'm) qayd etildi.